

TASHABBUSLI BYUDJET JARAYONLARINING AHAMIYATI

*Ortiqov Muhammad Sodiq,
Hamroqulov Abdurahmon,
Eshboyev Sanjar*

TDIU “Moliya fakulteti” MMT-94 guruh talabalari

Annotatsiya: Jahon mamlakatlarida fuqarolarning byudjet jarayonida ishtirok etishi shaffofik va ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga, bu orqali davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Fuqarolarning ma'lum shakldagi byudjet qarorini qabul qilish jarayonida ishtirok etishi demokratik boshqaruva shakllariga ega ko'plab mamlakatlarda deyarli XX asrning o'rtalaridan buyon amalda bo'lib kelmoqda. Biroq 80-yillarda bu amaliyot faol ravishda "texnologiyalashtirilib", ko'pgina davlatlarda mahalliy rivojlanish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish va ushbu qarorlarni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirishda jamoatchilikning ishtirokiga asoslangan turli xil innovatsion loyiha va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirila boshladi.

Kalit so'zlar: tashabbusli byudjet, davlat byudjeti, fuqarolar, maxalliy byudjet, raqamli iqtisodiyot.

Jahonda davlat moliyasini isloh etish sharoitida tashabbusli byudjetlashtirish orqali moliyaviy resurslardan samarali foydalanish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Budget mablag'laridan samarali foydalanishda davlat va xususiy sektor boshqaruvini ajratishning aniqligini ta'minlash, byudjet mablag'larini ta'minlashda vakolatli organlar rolini kuchaytirish, aholi ishtirokini kengaytirish, fiskal siyosat maqsadlariga erishishni nazorat qilish, moliyaviy axborot va risklarni, ichki va tashqi nazoratlarning o'zaro ta'sirini aniqlash, moliyaviy ma'lumotlarning tushunarli va aniq shakllantirilishi, moliyaviy ma'lumotlarning ochiqligi ta'minlanishida real vaqt rejimiga amal qilinishi va amalga oshirilishi, moliyaviy siyosatning ochiqligini ta'minlash me'yorlarini takomillashtirish bu boradagi tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda yuqori iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida mintaqalarni kompleks va mutanosib rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida hududlar o'rtasida o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni tashkil etish ularni barqaror rivojlantirishning yangi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tashabbusli byudjet fuqarolarning davlat byudjetining belgilangan qismini taqsimlashda bevosita ishtirok etishi jarayonidir. Xalqaro tajribada tashabbusli byudjet

“Participate” (partisipator) byudjetlashtirish nomi bilan ma’lum. “Participate” so‘zi ingliz tilida – “qatnashish, ishtirok etish” degan ma’nolarni anglatadi. Fuqarolarning tashabbuslarini hisobga olgan holda byudjet mablag‘larining bir qismini taqsimlash va bu mablag‘larni sarflash yo‘nalishlarini tanlash bo‘yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilish, shuningdek, qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishini kuzatish amaliyoti tashabbusli byudjet deyiladi.

Respublika byudjetidan davlat byudjetining umumdavlat ahamiyatiga molik tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladi. Masalan, mudofaa, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, bojxona organlari, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, adliya, prokuratura va sud organlarini saqlash xarajatlari, O‘zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo‘lgan xalqaro tashkilotlarga a’zolik badallarini to‘lash va ularni moliyalashtirishda ishtirok etish, davlat qarzi bo‘yicha xizmat ko‘rsatish xarajatlari respublika byudjetidan qoplanadi. Shuningdek, joriy tartib bo‘yicha, akademik litsey va texnikumlar, institut va universitetlar, bolalar uylari, respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi, OITSga qarshi kurashish respublika markazi, Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati, davlat arxivlari, respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi urush hamda mehnat faxriylari uchun pansionatlar va sanatoriylarni saqlab turish xarajatlari hamda davlat mukofotlari, davlat pul mukofotlari bilan taqdirlanganligi munosabati bilan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofotlari va mukofotlarini to‘lash kabi xarajatlar ham respublika byudjetidan moliyalashtiriladi.

Mahalliy byudjetlar - davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda ma’lum ma’muriy birlikning daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.¹ Mahalliy byudjetlar davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasining tashkil etuvchi bir qismi. Mahalliy byudjetlarning mohiyatini o‘zida mujassam etuvchi yuqorida keltirilgan ta’riflardan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlarga xos bo‘lgan eng muhim xarakterli belgilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchisi, mahalliy byudjet tegishli viloyat, tuman va shaharlarning ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Ikkinchisi, mahalliy byudjetlar mahalliy hokimiyyat organlarining o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari uchun daromadlar manbalari va tushumlar miqdoriga ega bo‘lmog‘i lozim. Uchinchisi, mahalliy byudjetlar hisobidan mahalliy hokimiyatga bo‘ysunuvchi korxona, tashkilot va muassasalar moliyalashtiriladi. Bu esa, aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlarini nazarda tutadi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tmoq kerakki, mahalliy byudjetlarga xos yuqoridagi xarakterli belgilarning barchasi bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lgan taqdirdagina ular mahalliy byudjetlarning


¹O‘roqov U., G‘aybullayev O., Irgashev I. Fuqarolar ishtirokidagi byudjet. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktria Press 2022-y. 87-b.

mazmun-mohiyatini olib berishga xizmat qiladi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, mavjud infratuzilmani yaxshilash, aholini ijtimoiy himoya qilish, buniyodkorlik va obodonlashtirish kabi muhim vazifalar bilan bog'liq chora-tadbirlarning moliyalashtirilishi, asosan, mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi. Mahalliy byudjetdan maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, madaniyat va kommunal xo'jalik sohalariga mablag'lar sarflanadi.

Mahalliy byudjetlarning asosiy vazifalari mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyatini moliyalashtirish, mahalliy iqtisodiyot tarmoqlariga pul mablag'larini taqsimlash, mahalliy byudjetga qarashli korxona, tashkilot va muassasalar faoliyatini moliyalashtirish va nazorat qilish kabilardan iborat. Mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga yuklatilgan funksiya va vazifalarning samarali amalga oshirilishi ularning moliyaviy mablag' bilan qay darajada ta'minlanganliklariga bevosita bog'liqdir. Mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini moliyaviy ta'minlash va qo'llabquvvatlashda mahalliy byudjetlar muhim o'rinn egallaydi, shu sababli mahalliy byudjetlar mablag'larini shakllantirish va boshqarish shu hududda yashovchi aholi uchun ustuvor ahamiyatga ega.

Mahalliy byudjetlar orqali yalpi hududiy mahsulot (YaHM) ning bir qismi hududning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga safarbar etiladi. Hududlardagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish subyektlarining faoliyati mahalliy byudjetlar orqali tartibga solinadi va boshqariladi.

Mahalliy byudjetlarni samarali va oqilona boshqarish aholini ijtimoiy himoya qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash asosida ular faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan bandligini oshirish, ijtimoiy, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini yaxshilash, hududlarni obodonlashtirish va ko'rkarlashtirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi davlat muassasalarini zamon talablariga mos moddiy texnika bazasi bilan ta'minlash va tegishli hudud iqtisodiyotini rivojlantirish imkonini beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, tegishli ma'muriy hudud (viloyat, tuman va shahar) ehtiyojlarini uchun shakllantirilgan, me'yorlashtirilgan hamda qonuniy ravishda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlarga ega pul jamg'armasiga mahalliy byudjet deyiladi. Mahalliy byudjetlardan tegishli ma'muriy hudud miqyosida respublika byudjetidan moliyalashtirilishi ko'zda tutilmagan ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa xarajatlar moliyalashtiriladi.



2-rasm. Mahalliy byudjetlar daromadlarining tarkibi²

Mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari (o'zlarining daromadlari) deganda qonunchilik bo'yicha to'liq mahalliy byudjetlarga biriktirilgan daromad manbalari tushuniladi. Iqtisodiy adabiyotlarda mahalliy byudjetlarning o'z daromadlariga quyidagilar kiritiladi:

1. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar. Mahalliy soliqlar va yig'imlar - hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manbaini vujudga keltirish, tabiiy resurslar va mulklardan oqilona foydalanish, mahalliy hokimiyat organlarining faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida joriy etilgan. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lov larga quyidagilar kiradi: yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i; yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig'i; yagona yer solig'i; ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi; ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im va boshqalar.

2. Bozorlardan tushadigan daromadlar. Tegishli ma'muriy hudud (viloyat, tuman, shahar)da joylashgan turli xil bozorlar (dehqon bozorlari, buyum bozorlari, chorvachilik mollari bozori va boshqalar)dan tushadigan daromadlar (bir martalik patta to'lovlar) ham mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari qatoriga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi har yili bozorlar va savdo komplekslarining ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovi va ko'rsatiladigan xizmatlar qiyematining minimal

² O'roqov U., G'aybullayev O., Irgashev I. Fuqarolar ishtirokidagi byudjet O'quv qo'llanma. T.: Baktria Press 2022-y. 92-b

miqdorlarini belgilaydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hududiy moliya va soliq organlari bilan kelishilgan holda bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo’mitasi tomonidan har yili belgilanadigan minimal miqdorlardan past bo‘lmagan miqdorda har yili tasdiqlaydilar. Ushbu xizmatlar bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino va inshootlar mulkdorlariga ko‘rsatiladi hamda ular uchun kadastr hujjatlarida ko‘rsatilgan egallagan yer maydonlaridan kelib chiqib haq to‘lanadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xalq iste’moli mollari aralash holda sotilganda, to‘lov sotiladigan mahsulot turlari bo‘yicha belgilangan eng yuqori stavka bo‘yicha undiriladi.

3. Juridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari. Bunday daromadlarga odatda sovg‘a, hadya ko‘rinishda, shuningdek, beg‘araz homiylik ko‘rinishida taqdim etilgan daromadlar kiradi.

4. Boshqa daromadlar. Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o‘tkazilgan molmulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo‘naltiriladigan davlat bojlari, yig‘imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo‘yicha davlat ixtiyoriga o‘tgan mol-mulkni, huquq bo‘yicha davlat daromadiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi. Biriktirilgan daromadlar esa qonunan respublika byudjetiga tushishi lozim bo‘lgan ba’zi umumdavlat soliqlarini ushbu mahalliy byudjetning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun to‘liq biriktirishdan hosil bo‘lgan daromadlardan iborat. Tartibga soluvchi daromadlar esa respublika byudjetiga undirilishi belgilangan katta salohiyatlari soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlardan mahalliy byudjetlarga ma’lum bir ajratmalar normativlar asosida qoldirilgan qismidir.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda mahalliy davlat hokimiyati organlariga tegishli budjetlar har chorak yakunida shakllantiriladigan daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismini mustaqil tasarruf etish vakolati berildi. Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish va xarajatlarini maqbullashtirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining manfaatdorligini oshirishni ta’minlaydigan qo‘sishcha byudjet vakolatlari va majburiyatlarini belgilashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida mahalliy ybudjetlarning qo‘sishcha daromadlar manbalari hajmi oshib bormoqda.

Bugungi kunda yurtimizda “Tashabbusli byudjet” jarayonlari doirasida fuqarolar tomonidan bildirilgan ijtimoiy takliflarni ovoz berish yo‘li orqali aniqlagan holda tegishli g‘olib taklifni moliyalashtirish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur mexanizm fuqarolarni byudjet mablag‘larini sarflanishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etishi va shu bilan bir qatorda byudjet mablag‘larini samarali sarflanishini kuzatib borish imkoniyatini beradi.

Har bir ijtimoiy muammoni moliyalashtirishda maksimal shaffoflikni ta’minalash, budgetlashtirishdan tortib pudratchidan ishni qabul qilib olishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda fuqarolar loyihada faol ishtirok etib, jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadga muvofiq.

Mahalliy budgetlarning daromad bazasini kengaytirish va xarajatlarini maqbullashtirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining manfaatdorligini oshirishni ta’minalaydigan qo‘srimcha byudjet vakolatlari va majburiyatlarini belgilashning zamонавиy mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida mahalliy budgetlarning qo‘srimcha daromadlar manbalari hajmi oshib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O‘quv qo ‘llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
2. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo ‘llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
3. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
4. Malikov T, Haydarov N. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
5. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
6. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташабbusli бюджетни жорий этишнинг ташкилий-хукуқий асослари - Science and Education, 2022
7. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
8. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
9. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
10. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
11. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
12. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хукуқий асослари.- Science and Education, 2023